

## GAFUR GULAM'S ROLE IN UZBEK LITERATURE.

*Eraliyeva Malika Tohir qizi,*

*Student of Tashkent state university of law,*

*[malikaeraliyeva527@gmail.com](mailto:malikaeraliyeva527@gmail.com)*

*To'xtayeva Aminaxon Muhiddin qizi,*

*Student of Tashkent state university of law,*

*[toxtayevaamina2001@gmail.com](mailto:toxtayevaamina2001@gmail.com)*

### **Annotation.**

This article provides information about the bright figure of Uzbek literature, writer, poet Gafur Ghulam, his works, and his difficult life during the war years.

The writer's stories and thoughts and comments about them, comments about the folkiness and simplicity of his poems are described.

**Keywords:** Writer, poet, literature, short story, genre poem, prose, verse, story, "Shum bola", "Tirilgan murda", "Yodgor", "Netay".

## G'AFUR G'ULOMNING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI.

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, adib, shoir G'afur G'ulom va uning asarlari, urush yillarida qiyinchilik bilan kechgan hayoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Adibning qissalari va ular haqida fikr va mulohazalar, she'rleridagi xalqchillik va soddalik haqida mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Adib, shoir, adabiyot, qissa, janr, she'r, nasr, nazm, hikoya, "Shum bola", "Tirilgan murda", "Yodgor", "Netay".

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan G'afur G'ulomni ko'pchilik insonlar "Shum bola" si orqali yaxshigina taniydi. Adib o'zining xalqchil asarlari orqali barcha insonlarning qalbidan joy olgan deb ayta olamiz. Nafaqat nasrda, balki nazm janrida ham qalami "o'tkir" bo'lgan adibimiz bizga o'zining o'lmas asar va she'rлarini meros qilib qoldirgan. Ulardan, "Shum bola", "Netay", "Yodgor", "Tirilgan murda" qissalarini, shuningdek, "Kuzatish", "Vaqt", "Sog'inish", "Sen yetim emassan" kabi she'rлarini tom ma'noda xalqning ichidagi dardini, urush yillaridagi qiyinchiliklarni badiiy mahorat bilan qog'ozga tushirgan deb ayta olamiz.

XX asrning zabardast shoirlaridan biri bo'lgan G'afur G'ulomning nomi, bosib o'tgan yo'li, serqirra ijodi barchamizga yaxshi ma'lum. G'afur G'ulom o'z safdoshlari qatorida g'oyat murakkab, g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi. Sobiq imperiya hududida, qolaversa, jahon miqyosida nom qozongan shoir zamonning barcha voqeа va hodisalariga guvoh bo'ldi, uning bir qismi ijodi esa hukmron mafkuraning talablari ta'siridan chetda tura olgan emas.

"G'afur G'ulom ijodi haqida so'z yuritganda adibning nasriy asarlari to'g'risida gapirmasdan bo'lmaydi. G'afur G'ulom nasrini haqiqiy nasr deb aytish mumkin. Satira va hajviya haqida gap ketganda G'afur G'ulomni bu sohalarning eng nodir ustasi, deyish mumkin. Keyingi paytlarda erkinlikni oshkora suiiste'mol qilayotgan ig'vogarlar, mahalliychi ayirmachilar bolalab ketdilar. Ular G'afur G'ulomning shafqatsiz satira qamchisini intazorlik bilan kutib turganga o'xshaydilar" deb aytgan edi O'zbekiston xalq shoiri – Abdulla Oripov.

Ulug' odamlar dunyodan o'tganlaridan keyin ham ular haqidagi turli maqomdagi xotiralar mavjlanib turaveradi. Chunchi, ba'zi birovlar bu ezgu ishga g'oyatda mas'uliyat bilan yondashadilar, ba'zi birovlar esamarhumlarni o'zlarining torgina dunyoqarashlariga moslashtirib olmoqchi bo'ladilar. Ulug' shoirimizning

ayrim mashhur she'rlarini tepasida turib "yozdirib" olgan, ya'ni doyalik qilganlarning soni ham o'n-o'n beshtaga yetgandir-ov...

G'afur G'ulomning she'rlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uning "Sog'inish" she'ri farzandiga atalganini, urushdan o'g'lini sog'-omon kelishini kutgan ota timsolida shoir gavdalanganini ko'rishimiz mumkin:

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...

Jondan sog'inishga uning haqqi bor,

Kutaman uzoqdan ko'rinsa bir ot,

Kelyapti, deyman ko'rinsa g'ubor.

### Foydalanilgan manbalar:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
2. <https://tafakkur.net/gafur-gulom.haqida>
3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Toshkent-2018.